

## PERIFRAZALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

*Dilafruz Ko`chkinova,*

*TerDU magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda tilshunoslikning o`rganish manbai hisoblangan perifrazalarning uslubiy xususiyatlari borasida so`z yuritiladi. Qayd etib o`tish lozimki, perifrazalarga uslubiy jihatdan yondashuv ularning yanada kengroq o`rganilishiga xizmat qiladi.

**Kalit so`zlar:** perifraza, uslubiy xususiyat, tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq, lingvistik yondashuv.

## METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PERIPHRASES

*Dilafruz Kochkinova,*

*Master of TerSU*

**Abstract.** This article talks about the methodological features of periphrasis, which are considered a source of learning in linguistics. It should be noted that the methodical approach to periphrases serves their wider study.

**Keywords:** periphrasis, methodological feature, research from the point of view of linguistics, linguistic approach.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРИФРАЗОВ

*Дилафруз Кочкинова,*

*Магистрант ТерГУ*

**Абстрактный.** В данной статье говорится о методологических особенностях перифраз, которые считаются источником обучения в языкознании. Следует отметить, что методический подход к перифразам служит их более широкому изучению.

**Ключевые слова:** перифраз, методологическая особенность, исследование с точки зрения языкознания, лингвистический подход.



Zamonaviy tilshunoslik o`zining xilma-xil xususiyatlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tilshunoslikda tadqiqot obyektlarining turli jihatlariga e`tibor qaratish masalaning mohiyatini yanada kengroq talqinda ko`rib chiqishga imkon beruvchi vosita sifatida qayd etiladi. Biz tadqiq etmoqchi bo`lgan ushbu tezisda perifrazalar hamda ularning uslubiy xususiyatlari borasida so`z yuritiladi hamda ularning mohiyati ochib berishga harakat qilinadi.

Perifraza – tasviriy ifodaning ikkinchi nom hisoblanib, unga misol sifatida “mo`yqalam sohiblari”, “zangori kema”, “qora oltin” va shu kabilarni keltirish mumkin[6]. Qayd etib o`tish lozimki, perifrazalarning uslubiy xususiyatlarini aniqlash ularning asosiy jihatlari hisoblanadi. Perifrazalar ikki xil ko`rinishga ega:

- I. *Barcha uchun tushunarli bo`lgan perifrazalar.*
- II. *Ayrim olingan, ma`lum vaziyat taqozosiga ko`ra qo`llaniluvchi perifrazalar[5].*

Nomidan ham ko`rinib turganidek, barcha uchun tushunarli hisoblangan tasviriy ifodalar (tasviriy ifoda – perifrazalarning ikkinchi nomi) ma`nosi omma uchun birdek anglashga oson hisoblansa, ikkinchi turdagi perifrazalarda ma`lum vaziyat taqozosi talab etiladi.

Bundan tashqari, perifrazalarning uslubiy jihatlari ham mavjud bo`lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq, ya`ni:

- I. *Perifrazalar qo`llash mumkin bo`lgan uslublar.*
- II. *Perifrazalar qo`llash mumkin bo`lmagan nutq uslublari[5].*

Birinchi guruh o`z ichiga badiiy, so`zlashuv hamda publisistik uslublarni olsa, ikkinchi toifa rasmiy hamda ilmiy uslub doirasida amal qilishi bilan ahamiyatlidir. Badiiy, so`zlashuv hamda publisistik uslublarda qo`llaniladigan tasviriy ifodalar matnning mazmunini yanada kengroq ochib berishga xizmat qilishi bilan birgalikda ulardagi mavjud so`zlarning takrorini oldini olishga yordam beradi. Jumladan, so`zlashuv uslubidan olingan quyidagi parchaga e`tibor bering:

- *Hoy sen, paxtani tozalab ter...*



- *Axir, u bizning oq oltinimiz*[7].

Soʻzlashuv uslubida qoʻllanilgan ushbu ifoda fikrning takroriy holatda ifodalanishining oldini oladi hamda ifodalanayotgan fikrga qoʻshimcha taʼkid yuklayotganligi bilan ahamiyatlidir.

“*Ijtimoiy tarmoq faollari bahor elchisi, gullab turgan boychechaklarni suratga olib joylashtirishdi. Aytilishicha, boychechaklar Qashqadaryo viloyati Yakkabogʻ tumanida ochilgan*[7]” – publisistik uslubga xos boʻlgan ushbu matnda boychechak leksik ifodasi bilan birgalikda uning tasviriy ifodasi ham, yaʼni “bahor elchisi” birgalikda qoʻllanilgan. Ushbu gapda oʻrin olgan perifraza izohlovchi sifatida ishtirok etib ifodalanayotgan soʻzning teranroq mohiyatini yoritib berishga xizmat qilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, perifrazalarning uslubiy jihatdan xususiyatlarini aniqlash ularning aks etgan semalarning batafsil ochib berilishiga xizmat qilishi bilan birgalikda perifrazalarga oid boʻlgan qator jihatlarni ham aks ettirishga yordam berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: filol. fan. dokt. ... dis. – T., 2002.
2. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
3. Mirtojiev M. Oʻzbek tilida polisemiya. – T.: Fan, 1975.
4. Neʼmatov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: Oʻqituvchi, 1989.
5. Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-T.: Oʻqituvchi, 1995.
6. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

